



**TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS**

VOLUME 7 / 2024

LABOR ECONOMICS

MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ilmiy elektron jurnali

**LABOUR ECONOMICS AND
HUMAN CAPITAL**

scientific electronic journal

2024 yil 1-son

Volume 7, Issue 1, 2024



**МЕХНАТ ИҚТISODIYOTI
VA INSON KAPITALI**
ISSN: 3030-3117



LABORECONOMICS.UZ

МЕХНАТ ИҚТISODIYOTI VA INSON KAPITALI

№ 1-2024

**ЭКОНОМИКА ТРУДА И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ
КАПИТАЛ**

LABOR ECONOMICS AND HUMAN CAPITAL

“Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 328/3-sonli qarori bilan ro‘yxatga olingan.

Muassis: “Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy maktabi.

Tahririyat manzili:

100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi,
49 uy

Elektron manzil: ilmiymaktab@gmail.com

Jurnal web-sayti: www.laboreconomics.uz

Bog‘lanish uchun telefonlar:

+998998818698

Tahririyat Kengashi raisi:

(Chairman of the Editorial Board)

Abduraxmanov Qalandar Xodjayevich, O'zFA akademigi

Tahririyat Kengashi a'zolari:

(Members of the Editorial Board)

Toshqulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof.
Yusupov Axmadbek Tadjiyevich, i.f.d., prof.
Sharipov Kongratboy Avezimbetovich, t.f.d., prof
Raifkov Kudratilla Mirsagatovich, i.f.d., prof
Xalmuradov Rustam Ibragimovich, i.f.d., prof
Umurzakov Baxodir Xamidovich, i.f.d., prof.
Nazarov Sharofiddin Xakimovich, i.f.d., prof.
Jumayev Nodir Xasiyatovich, i.f.d, prof.
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof.
Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof.
Zokirova Nodira Kalandarovna, i.f.d., prof.
Xudoyberdiyev Zayniddin Yavkachevich, i.f.d., prof.
Muxiddinov Erkin Madorbekovich, i.f.f.d., (PhD)
Xolmuxammedov Muhsinjon Murodullayevich, i.f.n., dots.
Amirov Lochinbek Fayzullayevich, i.f.f.d., (PhD), dots.
G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich, i.f.f.d., (PhD), dots.
Shakarov Zafar Gafarovich, i.f.f.d., (PhD)

Jamoatchilik Kengashi a'zolari:

(Community Council members)

Bred Bodenxauzen (AQSh)
Jon Ankor (Buyuk Britaniya)
Odegov Yuriy Gennadevich (Rossiya Federasiyasi)
Keynz Miller (AQSh)
Sung Dong Ki (Koreya Respublikasi)
Masato Xivatari (Yaponiya)
Gerxard Feldmayer (Germaniya)
Eko Shri Margianti (Indoneziya)
Ahmed Mohamed Aziz Ismoil (Misr)
Rohana Ngah (Malayziya)
Sharifah Zanniyerah (Malayziya)
Teguh Dartanto (Indoneziya)
Nur Azlinna (Saudiya Arabistoni)
Muhammed Xoliq (Pokiston)
Alisher Dedaxonov (Toshkent)

Mas'ul muxarrir (Editor-in-Chief): G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich

Veb-administrator (Web admin): Musayev Xurshid Sharifjonovich

MUNDARIJA (CONTENTS)**MEHNAT BOZORI VA MEHNAT MUNOSABATLARI**

G.K.Abduraxmanova S.B.G'oyipnazarov S.P.Qurbonov	<i>Mamlakat aholisini unumli bandlik darajasini oshirish mexanizmini takomillashtirish</i>	7-18
B.E.Mamaraximov	<i>Ishchi kuchini takror ishlab chiqarish yoshlar bandligini ta'minlash omili sifatida</i>	19-25
A.A.Yadgarov	<i>Agrar tarmoqni sufgurtalashda mалаkali кадрлар тайёрлаш ҳолати ва ривожлантириш истиқболлари</i>	26-32
S.P.Qurbonov	<i>O'zini o'zi band qilishda zaif bandlikdan unumli bandlik sari transformatsion jarayonlar</i>	33-45
N.R.Saidov	<i>Yangi ish o'rinlarini tashkil etishga investisiyalar ta'sirini ekonometrik tahlili</i>	46-56
F.O'.Masharipov	<i>Meʼnat bozorida хусусий сектор эҳтиёжи асосида ўрта бўғин кадрларини тайёрлаш: муаммолар ва ечимлар</i>	57-70
S.M.Kurbanbayeva	<i>Квалификационные рамки в современном образовании и рынке труда</i>	71-80
I.X.Xuvaydullayeva	<i>Миллий меҳнат бозорида инсон ресурсларидан самарали фойдаланишни имкониятлари</i>	81-90
G.R.Kuziyeva	<i>O'zbekistonda raqamlashtirish va ta'lim orqali mehnat unumdorligini oshirishning miqdoriy tahlili</i>	91-101

INSON KAPITALI

A.B.Irmatova A.M.Saidahmadov	<i>Raqamli iqtisodiyotda inson kapitalini rivojlantirishda o'qitish tizimi</i>	102-117
S.M.Dusanov	<i>Таълим тизимида молиявий ресурслар самарадорлигини оширишнинг ривожланган хорижий мамлакатлар тажрибасидан фойдаланиш имкониятлари</i>	118-134
I.I.Ergashev	<i>Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантиришда инвестициялардан фойдаланиш самарадорлигини баҳолаш услубиёти</i>	135-145
Sh.A.Xodjayeva	<i>Основы формирования и функционирования маркетинговой деятельности высших образовательных учреждений</i>	146-159

M.R.Babadjanova	<i>Иқтисодий категория сифатида инсон капиталининг моҳияти ва унда таълимни ўрни</i>	160-172
D.B.G'aniyeva	<i>Ходимларни ўқитиш ва ривожлантиришнинг дастурларининг самарадорлигини баҳолаш муаммолари</i>	173-184
INSON TARAQQIYOTI		
D.I.Iskandarova	<i>O'zbekistonda aholi daromadlari va unga ta'sir etuvchi omillar tahlili</i>	185-194
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH		
M.X.Fayziyeva	<i>Kambag'allikni qisqartirishga raqamli texnologiyalarning ta'siri</i>	195-210
INSON RESURSLARINI BOSHQARISH		
M.Sh.Xaydarova	<i>Использование автоматизации и искусственного интеллекта в управлении человеческими ресурсами: тренды и ожидания</i>	211-221
M.M.Xolmatov	<i>Inson resurslarini samarali boshqaruvida inson kapitalini rivojlantirish</i>	222-232
G.Q.Mo'ydinova	<i>O'zbekistonda to'qimachilik korxonalarining rivojlanish holati va ularda xodimlarni boshqarish tendensiyalari tahlili</i>	233-238
O.I.Rasuljonov	<i>KPI – xodimlar faoliyati samaradorligini baholashning zamonaviy tizimi</i>	239-246
TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH		
S.U.Ismailova D.U.Adilova	<i>Теоритические основы развития стратегии цифрового маркетинга на рынке сферы услуг и туризма</i>	247-254
Z.M.Jabborova	<i>Jizzax viloyatida kichik biznes va tadbirkorlikda mehnat munosabatlarining rivojlanishi holati</i>	255-263
S.S.Mamatqulov D.I.Iskandarova	<i>O'zbekistonda tadbirkorlikni innovatsion rivojlantirish asosida aholi farovonligini yuksaltirish yo'llari</i>	264-274
M.Sh.To'xtayeva	<i>Platformalarda informatsion xaritalar – aholi tadbirkorlik qobiliyatini rivojlantiruvchi vosita sifatida</i>	275-282
T.A.Urkinbayev	<i>Влияние реформ в сфере туризма на рост экономики Узбекистана и развитие предпринимательства</i>	283-292

D.A.Vahobov	<i>Кичик бизнес субъектлари фаолиятини инфратузилмавий қўллаб-қувватлаш тизимини такомиллаштириш</i>	293-305
Z.Dj.Adilova	<i>Factors and assessment methods in the development of HR branding: foreign experience</i>	306-314
GENDER TENGLIK		
O.U.Oxunova	<i>O'zbekiston mehnat bozorida gender tengligi: muammolar va islohotlar</i>	315-324



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ISSN: 3030-3117

<https://laboreconomics.uz/>



INSON RESURSLARINI SAMARALI BOSHQARUVIDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH

Xolmatov Muhridin Mo‘min o‘g‘li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Inson resurslarini boshqarish” kafedrasini o‘qituvchisi

DOI: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a72

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimizda inson kapitalini rivojlantirish yo‘nalishlari, inson resurslarini samarali boshqaruvida inson kapitaliga kiritiladigan investitsiyalarning ahamiyati, bu borada xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari, tajribalar tahlil qilindi. Tahlil natijasida inson kapitalini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi

Kalit so‘zlar: inson, kapital, investitsiya, iqtisodiyot, raqamli muhim, transformatsiya, samara, xarajat, ta‘lim.

РАЗВИТИЕ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В ЭФФЕКТИВНОМ УПРАВЛЕНИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКИМИ РЕСУРСАМИ

Холматов Мухриддин Муминович

Преподаватель кафедры «Управление человеческими ресурсами»

Ташкентского государственного экономического университета

Аннотация. В данной статье проанализированы направления развития человеческого капитала в нашей стране, значение инвестиций в человеческий капитал в эффективном управлении человеческими ресурсами, научно-теоретические взгляды, опыт зарубежных и отечественных ученых на эту тему. В результате анализа разработаны научно обоснованные предложения и рекомендации по развитию человеческого капитала

Ключевые слова: человек, капитал, инвестиции, экономика, цифровое значение, трансформация, эффект, стоимость, образование.

DEVELOPMENT OF HUMAN CAPITAL IN THE EFFECTIVE MANAGEMENT OF HUMAN RESOURCES

Kholmatov Muhriddin Mumin ugli

Teacher of the department of human resource management at

Tashkent state university of economics

Abstract. This article analyzed the areas of development of human capital in our country, the importance of investments in human capital in the effective management of human resources, the scientific and theoretical views of foreign and domestic scientists on this matter, experiments. As a result of the analysis, scientifically based proposals and recommendations for the development of human capital were developed

Keywords: human, capital, investment, economy, digital essential, transformation, efficiency, cost, education.

Kirish

Iqtisodiy o'sishning eng muhim jihatlaridan biri inson kapitali hisoblanadi. Aynan inson kapitaliga ega bo'lish va undan samarali foydalanish mamlakat iqtisodiyotining dunyo miqyosidagi o'rnini belgilab beradi. Shu munosabat bilan inson kapitalining sifati, uning miqdoriy va sifat xususiyatlarini raqamlashtirish jarayonlari ta'sirida, o'zgarib borayotgan yangi ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiyaga qanchalik muvofiqligini aniq tushunish zarur.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, inson kapitali tushunchasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ilm-fan sohasiga keng qo'llanila boshlandi. Inson kapitali fan va texnika taraqqiy etgan zamonaviy dunyoda eng qimmatga aylangan resurs hisoblanadi.

Ammo ushbu tadqiqot yo'nalishi murakkabligi sababli juda ko'p o'rganilmagan masalalarga ega bo'lib, inson kapitalini barcha ko'rinishlari baholash va uni o'lchashning uslubiy qiyinchiliklari mavjud. Shuningdek, hozircha turli uslubiy yondashuvlarga ega yagona me'yoriy-huquqiy baza ham mavjud emas. Zamonaviy dunyoda yuqori texnologiyalarni ishlab chiqish va yanada rivojlantirish, barcha sohalarda innovatsion mahsulotlar va texnologiyalarni joriy etish, iqtisodiy hayot yangi inson resurslarini talab qiladi.

Innovatsion iqtisodiyotning asosini, hozirgi davr jamiyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning hal qiluvchi kuchi hisoblangan, - inson kapitali tashkil etadi (Muminov, 2021). Ya'ni inson tafakkuri ishlab chiqarish tizimining shunchaki muayyan unsuri bo'lib qolmasdan, balki bevosita ishlab chiqaruvchi kuchga aylandi. Dastavval insonni rivojlantirish tushunchasining tarkibiy qismlari u qadar ko'p bo'lmasdan, tarbiya, ta'lim, bilim, salomatlikni qamrab olardi. Shu bilan birga uzoq vaqt davomida insonni rivojlantirishga iqtisodiy o'sish nazariyasi nuqtai nazaridan taraqqiy etishning ijtimoiy, ya'ni xarajatli omil sifatida qaralardi. Tarbiya va ta'limga investisiyalar noishlab chiqarish xarajatlari hisoblanardi. XX asr ikkinchi yarmidan boshlab inson kapitali va ta'limga nisbatan munosabat asta-sekin, lekin tubdan o'zgarib boshladi.

Jamiyatda inson taraqqiyotining muhim mezonini, uning umr ko'rish davomiyligi, savodxonligi va resurslardan foydalanish imkonini ifodalaydigan - Insonni taraqqiyoti indeksidir. Har qanday mamlakatning farovonlik darajasi faqatgina daromadlar miqdoriga emas, balki ushbu daromadlardan qay darajada foydalanishga ham bog'liq. Aholi daromadlarining o'zi inson rivojlanishini kafolatlamaydi. Shunday ekan, inson taraqqiyotining ikki xususiyati mavjud bo'lib, ular imkoniyatlar shakllanishi va ulardan foydalanishni bir-biridan farqlash kerak. Insonni rivojlantirish faqatgina iqtisodiy o'sishni ta'minlamasdan, uning natijasini adolatli taqsimlash ham nazarda tutiladi.

Bunday rivojlanish aholini ijtimoiy himoyalashga muhtoj kategoriyalariga alohida ahamiyat berilishini, ularning imkoniyatlarini kengaytirish, o'z

turmush darajasiga ta'sir etadigan qarorlar qabul qilishda qatnashishlarini ta'minlash e'tiborga olinadi. Mazkur rivojlanish insonlarning manfaatlarini nazarda tutadi, ularga ish joylarini ko'paytirish hamda aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

Inson kapitali rivojlanishi jamiyat rivojlanishi ijtimoiy taraqqiyotning muhim muammolarini hal etishda asosiy o'rin egallaydi. Iqtisodiyotning transformatsiyalashishi sharoitida inson kapitalini rivojlantirish ijtimoiy, texnik hamda iqtisodiy taraqqiyotning muhim harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Inson kapitalini rivojlantirish ustuvorligi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ham, barqaror iqtisodiyotlar va innovatsion rivojlanishni amalga oshirayotgan tizimlar uchun ham universal xususiyatga egadir. Bu jahonning yetakchi olimlari va xalqaro tashkilotlarning ekspertlari tomonidan amalga oshirilgan juda ko'p tadqiqotlarda o'z tasdig'ini topgan

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Dastlab inson kapitalidan 1958-yilda amerikalik iqtisodchi Djeykob Minser “inson kapitali va shaxsiy daromad taqsimotiga investisiyalar” [14] asarida foydalangan. 1961-yilda Teodor Tshuls bu iborani iqtisodiyot faniga iqtisodiy kategoriya sifatida kiritdi hamda inson kapitalining turli jihatlarini o'rgangan bir qator tadqiqotchilardan Irving Fisher va uning *The Nature of Capital and Income* (1906) asarini, Adam Smitning “mamlakat aholisining qobiliyatini shakllanishini tug'ma va orttirilgan jihatlari” to'g'risidagi g'oyalarini va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy asarlarini o'rgandi.

1964-yilga kelib, T.Shulsning izdoshi Geri Bekker esa – ushbu tushunchalarni rivojlantirib, insoniy xatti-harakatlarga iqtisodiy yondashishni shakllantirish g'oyasini ishlab chiqdi va inson kapitaliga investitsiyalarning samaradorligini asoslab berdi hamda “inson kapitali (angl. human capital) — bu inson va butun jamiyatning turli-tuman ehtiyojlarini qondirish maqsadida foydalaniladigan bilim, ko'nikma va malaka majmuidir” [15] deb ta'rifladi.

Xorijlik olimlardan M.Hidayat va F.Latief inson kapitali mamlakatni rivojlantirishda va aholi farovonligiga erishishda boshqarishning asosiy omilidir. Shu sababli, inson kapitalini boshqarishni rivojlantirish mamlakatda inson kapitali sifatiga erishishga qaratilgan bo'lib, u bugungi kunda kompaniyaning eng muhim strategiyalaridan biridir. Olimlarning taqdiqoti inson kapitalini boshqarish rivojlanishining mamlakat iqtisodiyotiga ta'sirini aniqlash, bu sohada inson kapitalini boshqarishdagi beshta muhim omil, ya'ni individual imkoniyatlar, individual motivatsiya, yetakchilik, tashkiliy iqlim va ishchi guruh samaradorligini aniqlash uchun mo'ljallangan deb hisoblaydilar (M.Hidayat va F.Latief, 2018).

Inson kapitali korxonalar va tashkilotlarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Inson kapitali tashkilotning inson omilini anglatadi. Tashkilotlarni rivojlantirish maqsadida inson kapitaliga berilgan e'tibor natijasida mamlakat iqtisodiyoti ham rivojlandi deb keltiradi (C.L.Mamuli).

A.Kucharčíková inson kapitalini boshqarish-bu mamlakatning eng qimmatli ishchi kuchini boshqarish uchun strategik va rejalashtirilgan yondashuvdir. Mamlakatni iqtisodiy rivojlantirishga erishish uchun inson kapitalining qiymati va samaradorligini baholash juda muhimdir. Inson kapitalini baholash va uning samaradorligi to‘g‘risida bir nechta yondashuvlar ma‘lum, ammo yagona metodologiya hali qabul qilinmagan. Universitetlarda o‘qitishni amalga oshirish jarayonida tadqiqotlar davom etayotgan yangi, zamonaviy mavzular bilan shug‘ullanish juda muhimdir (Kucharčíková A. va boshqalar, 2015).

Mahalliy olimlardan K.Abduraxmanov, G.Abduraxmanova, S.G‘oyipnazarov, S.Bozorovalarning ilmiy ishlarida mamlakatimizda inson kapitalini rivojlantirishning ahamiyati, iqtisodiyotni rivojlantirishda inson kapitaliga kiritiladigan investitsiyalarning ahamiyati, sun‘iy intellektning inson kapitaliga ta‘sirini va boshqa qirralari batafsil o‘rgangan.

Sh. Amirqulov inson kapitali tushunchasiga, individning tabiiy, iqlimiy, biologik, ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik va innovatsion salohiyati bilan o‘zaro aloqadorlikda shakllanadigan, qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishida xo‘jalik faoliyati jarayonida foydalanadigan, korxonalar, tarmoq va jamiyat manfaatlari uchun sinergetik samara beradigan, uning egalarining daromadini ta‘minlaydigan bir qator bilim, ko‘nikma, mahorat, ijod qobiliyatlari, madaniyat, an‘analalar, tajriba, shuningdek, aloqa va psixofizik potentsiallari jamlanmasini tushunish imkonini beradi deb keltirgan (Amirqulov, 2020).

B.S. Boltayev inson kapitalining rivojlanish omillarini tasniflash, hamda inson kapitalining rivojlanish darajalari gradasiyasini respublikamizdagi holatini tadqiq qilish borasida hal qilinishi lozim bo‘lgan qator ilmiy masalalar bo‘yicha ilmiy ish olib borgan va inson kapitalini rivojlantirishda mamlakat eng avvalo ta‘limni rag‘batlantirishi lozim deb hisoblaydi (Boltayev, 2022).

Tadqiqot metodologiyasi

Ilmiy tadqiqotimizning maqsadi mamlakatimizda inson resurslarini samarali boshqaruvini amalga oshirishda inson kapitalining o‘rni va ahamiyatini baholash va inson kapitalini rivojlantirishni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqarishdan iborat. Maqolada guruhlash, qiyosiy va analitik tahlil, abstraktsiya, tarkibiy tahlil, omilli va statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Jahon iqtisodiyoti rivojlanish tendensiyasining ko‘rsatishicha, taraqqiyotning muhim omillaridan biri sifatida bilim, mahorat, malaka, ta‘limni davom ettirishga bo‘lgan qobiliyat va ehtiyoj alohida ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro reyting agentliklarining ma‘lumotiga ko‘ra, 2035-yilgacha bo‘lgan davrda zamonaviy global mehnat bozori avtomatlashtirish va maqbullashtirishdan iborat bo‘lib, mehnat resursining ishsiz qolishiga olib keladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra 2025-yilga kelib robotlashtirishni kuchayishi bilan bog‘liq ish joylarining qisqarishi 10-30 foizni tashkil etadi. Bu esa, o‘z navbatida, inson kapitalini rivojlantirish iqtisodiy taraqqiyotning

asosiy omili sifatida yuzaga chiqishi shart ekanligini ko'rsatmokda. Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda milliy boylikdagi inson kapitali ulushi 80 foizgachani tashkil etadi. Shu jihatdan, jahonning taraqqiy etgan mamlakatlarida inson kapitalini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda (Erkayeva, 2023).

1-jadval

Inson kapitali rivojlanish omillarining tasnifi

№	Inson kapitali shakllanishining tasnifiy belgilari	Inson kapitali shakllanishining tavsifi belgilari
1.	Joriy etish xarakteriga ko'ra	umumiy; maxsus.
2.	Amalga oshirish shakliga ko'ra	jonli jonsiz institusional
3.	Qayta ishlab chiqarishda ishtirok etish	iste'mol ishlab chiqarish intellektual
4.	Yig'ilish shakli bo'yicha	sog'liqni saqlash kapitali mehnat madaniy va axloqiy intellektual tashkilotchilik va tadbirkorlik yetakchilik
5.	Darajalar bo'yicha	nano: individual, oilaviy kapital mikro: tashkilot yoki korxonalar kapitali mezo: tarmoq kapitali, xudud kapitali makro: milliy, global

[Muallif tomonidan ma'lumotlar asosida qayta tuzildi]

1-jadval ma'lumotlari asosida inson kapitalini yanada samaraliroq rivojlantirish maqsadida ularda soft skillsni, yetakchilik, intiluvchanlik qobiliyatlarini, tashkilotchilik va boshqa qobiliyatlarini rivojlantirish va ta'limga alohida e'tibor berish orqali inson kapitalini oshirish imkoniyati ortadi.

Mamlakatda inson kapitalining raqamli rivojlanishini boshqarishning strategik modelini shakllantirishni tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi, bu o‘z navbatida bizga korxonalarining inson kapitalini raqamli rivojlantirish jarayonini quyidagi ishtirokchilar - institutlarning o‘zaro ta‘sirini birlashtirish asnosida ko‘rib chiqishga imkon beradi:

1. Insonlarni yuqori malakali kasblarni tanlashga undash borasida zarur bo‘lgan bozor muhitini shakllantiruvchi mehnat bozori instituti.

2. Sanoat, raqamli texnologiyalar va texnologiyalarning o‘zini joriy qiluvchi korxonalarni birlashtiruvchi ekotizim sifatida texnologik muhitni shakllantirish.

3. Zaruriy maqsadli kompetensiyalarga ega bo‘lgan yuqori sifatli inson kapitalini yaratish uchun ta‘lim muhitini shakllantiruvchi ta‘lim tizimi.

4. Inson kapitalining amalda bo‘lishi va raqamli rivojlanishi uchun ijtimoiy muhitni tashkil etuvchi sog‘liqni saqlashva ijtimoiy ta‘minot tizimi.

Taqdim etilgan institusional modelga muvofiq, korxonalarining inson kapitalini raqamli rivojlantirish strategiyasi quyidagi drayverlar ta‘siri ostida shakllanadi. Raqamli bilim va ko‘nikmalarga ommaviy talabni rag‘batlantirish drayverlariga quyidagilar kiradi:

-sanoat va iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini raqamli rivojlantirish;

-raqamli voqelikka moslashtirish va ilg‘or raqamli texnologiyalar, biznes modellari sinovdan o‘tkaziladigan pilot loyihalarni tartibga solish rejimini soddalashtirish borasida iqtisodiyot tarmoqlarining raqamli rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish;

-avtomatlashtirish, sun‘iy intellekt va raqamli biznes modellari sohasida fundamental tadqiqotlar o‘tkazishga xizmat qiluvchi ilmiy-tadqiqot markazlarini rivojlantirish;

-mehnatni tashkil etish shakllarini aniq belgilangan vazifa va lavozimlardan loyihalashtirish ishlariga o‘zgartirish, bunda ish jarayonlari funksiyalarga qaraganda ko‘proq aniq loyihalarga asoslanadi;

-bandlik tarkibini o‘zgartirish, raqamlashtirish an‘anaviy va mustaqil faoliyatni birlashtirgan holda mustaqil yoki gibrid bandlikka o‘tishni sezilarli darajada yengillashtiradi;

-avtomatlashtirilgan mehnat ulushining ko‘payishi bilan ish joyini o‘zgartirish;

-raqamli dunyo talab qiladigan yangi ko‘nikmalarni rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyojni shakllantirish.

Inson kapitalining shakllanishi va rivojlanishi doimiy, uzluksiz, uzoq muddatli jarayondir. Inson kapitalini shakllantirish va rivojlantirish mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishi uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, yangi innovatsion texnologiyalar bilan bir xil yoki undan ham ko‘proq foyda keltiradi.

Inson kapitalining shakllanishi va rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy-demografik, institutsional, integrasiya, ijtimoiy-ruhiy, ekologik, iqtisodiy, ishlab chiqarish, demografik, ijtimoiy-iqtisodiy omillar mavjud. Shu

sababli, inson kapitali milliy, mintaqaviy, tarmoq darajasida, shuningdek, korxonada va shaxs darajasida tahlil qilinishi zarur.

Bunda inson kapitalini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha dunyo tajribasini o'rganish asosida tahlil etish bugun davr talabidir. Dunyoning barcha mamlakatlarida inson kapitalini shakllantirishda eng asosiy e'tibor ta'lim tizimiga qaratiladi. Inson kapitalining ahamiyati turli xil yondashuvlar asosida baholanadi. Iqtisodiy nuqtayi nazardan esa bu ta'lim olgan kishilarning daromadi darajasiga ko'ra aniqlanadi. Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, har bir qo'shimcha ta'lim yili inson daromadini o'rtacha 10 foizga oshiradi. Bunda ta'lim sifati muhim ahamiyatga ega.

Ta'lim sifatiga e'tibor bo'yicha Osiyo mamlakatlaridan Xitoy tajribasi e'tiborlidir. Xitoyda katta yoshdagi aholining bor-yo'g'i 15–17 foizi savodsiz hisoblanadi. Agar bu ko'rsatkichni boshqa Osiyo mamlakatlari bilan taqqoslasak Hindistonda – 47%; Bangladeshda – 61%; Pokistonda – 59%; Eronda – 27%; Turkiyada – 17%; Indoneziyada – 15% ni tashkil qiladi (Oripova, 2014).

Ta'lim sifatini oshirish orqali inson kapitalini rivojlantirishda Yevropa mamlakatlaridan Finlyandiya tajribasi ham e'tiborga molikdir. 1990-yillarning boshida Finlyandiya innovatsion siyosat davri e'lon qilindi. Bu yondashuv Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan qabul qilingan “bilimlar jamiyati” tamoyiliga asoslangan holda milliy innovatsion tizimni yaratishni ko'zda tutgan (Ilikka, 2019).

Innovatsiya va raqobatbardoshlik borasida dunyoda so'nggi 20 yilda yetakchi o'rinlarda borayotgan Finlyandiya tajribasi aynan ta'lim sohasi ushbu mamlakatda vujudga kelgan yuqori sifatli hayotning asosi bo'lganligini ko'rsatadi. 2022-yil ko'rsatkichlariga ko'ra Finlyandiya innovatsion iqtisodiyotlar reytingida (GII) 132 ta iqtisodiyot orasida 9-o'rinni, inson taraqqiyoti indeksi (HDI) bo'yicha 0,940 ball bilan 11-o'rinni egallagan.

Finlyandiya har bir talabaga o'rtacha xarajat yiliga 18 129 AQSh dollarini tashkil etadi, bu boshlang'ich ta'lim darajasidan taxminan 7 600 AQSh dollariga va o'rta ta'lim darajasidan 6 200 AQSh dollariga ko'pdir (<https://www.oecd-ilibrary.org/>). Vaholanki Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a'zo mamlakatlarda talabalarga qilinadigan xarajatlar ko'rsatkichi o'rtacha 15 772 dollarni tashkil qiladi. “Ta'lim va kasbiy tayyorlov” ko'rsatkichi bo'yicha Finlyandiya dunyoda 1-o'rinni egallaydi. Shu bilan bir qatorda, ushbu mamlakat aholining boshlang'ich va o'rta ta'limi darajasining yuqoriligi bilan ham ajralib turadi. Mamlakatning o'rtacha o'quvchisi oliy ta'limgacha ta'limni o'rtacha 12 yil davomida o'zlashtiradi. Ushbu vaqt davomida uning o'qishi uchun o'rtacha 104 596 dollar sarflanadi.

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim 6 yil davom etadi va bu vaqt oralig'ida bir o'quvchiga o'rtacha 45 747 dollar xarajat qilinadi. 3 yil davom etadiga umumiy ta'limga har bir o'quvchi uchun 35 114 dollar sarflanadi. O'rta ta'lim 3 yil davom etadi va har bir o'quvchiga o'rtacha 23 735 dollar xarajat qilinadi. Finlyandiya oliy ta'lim o'rtacha 4 yil mobaynida o'rgatiladi va uning

moddiy qiymati 79 224 dollarni tashkil etadi. Davlat tomonidan moliyalashtirishning umumiy miqdoridan 84,3 foizi oliy ta’limni davlat tomonidan to’g’ridan-to’g’ri moliyalashtirishga, 15,3 foizi talabalar va ularning oilalariga ajratiladigan subsidiyalarga hamda 0,4 foizi xususiy sektorga ajratiladigan subsidiyalarga to’g’ri keladi.

Maktabgacha, o’rta va kasb-hunar ta’limi tizimini moliyalashtirish tarkibi quyidagicha: To’g’ridan-to’g’ri davlat tomonidan moliyalashtirish 96,9 foizni, talabalar va ularning oilalariga subsidiyalar – 2,9 foizni, xususiy sektorga beriladigan boshqa subsidiyalar – 0,2 foizni tashkil etadi (Erkayeva, 2022).

Dj. Delor tomonidan taklif qilingan “kelajak uchun o’qish” tushunchasiga ko’ra, inson tashqi muhitdagi o’zgarishlar talablarini qondirish uchun 5ta ko’nikmalarni egallashi kerak. Dj. Delorning so’zlarini qayta o’zgartirgan holda, shuni ta’kidlashimiz muhimki, lifelong learning raqamli muhitida ta’limni boshqarish tamoyillari quyidagilarni o’z ichiga oladi (Togayev, 2023):

learning to know (bilish uchun o’rganish) – nafaqat tizimlashtirilgan bilimlarni egallash, balki axborotning mohiyatini anglash, o’quv vositalarini o’zlashtirish;

learning to do (bajarishni o’rganish) – bu hozirda zarur bo’lgan va kelajakda kerak bo’ladigan ish turlari uchun ko’nikmalar to’plamini ishlab chiqish, shu jumladan innovatsiyalar va o’qitishni kelgusidagi ish sharoitlariga moslashtirish;

learning to live together, and with others (o’zga insonlar odamlar muhitida yashashni o’rganish va hamkorlik qilish) – konstruktiv muloqot qilish, nizolarni tinch yo’l bilan hal qilish, ijtimoiy integrasiyani kuchaytirish;

learning to be (bo’lmoqlikni o’rganish) – bu insonning ongi va tanasi, aqli, sezgirligi, axloqi, ma’naviy olami va shu kabi jihatlarini har tomonlama va to’liq rivojlanishiga yordam beradigan ta’limdir;

learning to learn (o’rganish uchun o’qish)-butun hayot daovida o’rganishda davom etish.

Inson kapitali uchun qilinadigan investisiyalar ko’lami jamiyatning taraqqiyot darajasi, buguni va ertasini belgilab beradigan asosiy ko’rsatkichlardan sanaladi.

Inson kapitalini eng samarali rivojlantiruvchi investisiyalar tarkibida salomatlik va ta’lim tizimi uchun kiritiladigan investisiyalar muhim ahamiyatga ega.

Fuqarolarning umr ko’rish davomiyligi uzayishiga quyidagi omillar sabab bo’lmoqda:

- ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda o’zgarishlarning turmush sifati, inson qadri va manfaatlariga yo’naltirilganligi;

- aholi o’rtasida ilm-fan, ayniqsa, oliy talim va zamonaviy kasblarni o’zlashtirishga bo’lgan ijobiy munosabatning shakllanganligi;

- aholini tibbiy madaniyati va salomatlik darajasining ortib borishi [17].

Inson kapitali tushunchasi bugungi kunga kelib faqatgina iqtisodiyot yoki ishlab chiqarishda emas, balki mamlakatdagi har bir fuqaroning individual

xususiyatlari – salomatlik, ta’lim, qobiliyati va iste’dodlari, orttirgan malaka hamda tajribalari, ijtimoiy, psixologik, dunyoqarash va odamlarning ijtimoiy-madaniy xususiyatlari, uning tarkibiy tuzilishi nafaqat moddiy, balki ma’naviy jihatdan ham anglashdan iborat. Salomatlik darajasi ta’lim bilan bevosita bog’langan inson kapitalining ajralmas qismi deb baholanadi.

Inson kapitalini uzliksiz rivojlantirishga sarflangan vaqt va xarajatlar ish tahlili uzoq muddat talab qilsa-da, pirovardida ijobiy natijadorligi yuqori hisoblanadi. Shuningdek, inson kapitali rivojlanishi shu kapital egasining o'ziga ko'rsatadigan e'tiborligi va g'amxo'rliqi muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim, salomatlik va boshqa omillar bilan birgalikda inson kapitali rivojlanishida bo'sh vaqtdan unumli foydalanish hamda madaniy hordiq olish darajasi shaxsning ijtimoiy turmush tarzi va sifatiga ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, muammoni o’rganish turli darajadagi agregatsiya va inson kapitali elementlarini ko’rib chiqish bilan to’ldirilishi kerak, bu uning darajasini baholashda muhimdir. Agregatsiya darajasiga (iqtisodiyot darajasi yoki inson mavjudligi darajasi) qarab, inson kapitalini mikro, mezo va makro darajada ko’rib chiqish mumkin.

Mikro daraja quyidagi faoliyat yo’nalishlaridan iborat modelni nazarda tutadi:

1. Inson kapitalini sifatli boshqarish.
2. Ichki inson kapitalini rivojlantirishga investitsiyalar.
3. Xodimlarni o’z-o’zini rivojlantirishni rag’batlantirish.
4. Ijodiy ishchilarni ushlab turish.
5. Biznesning ijtimoiy javobgarligi.

Bizning fikrimizcha, ushbu model inson kapitalining barcha elementlarini to’liq qamrab olmaydi, shunga mos ravishda tor yo’naltirilgan va to’liq samarali bo’lmaydi.

Shuni ta’kidlash kerakki, shaxslarning inson kapitali (individual inson kapitali) birgalikda oila yoki tashkilotning inson kapitalini tashkil qiladi. Ular, o’z navbatida, mintaqalar yoki tarmoqlarning inson kapitalini shakllantirish uchun asos bo’lib xizmat qiladi.

Inson kapitalini rivojlantirish jarayoni tashkiliy va murakkabdir. Inson kapitalining yangilanishi shaxsning imkoniyatlari va qobiliyatlarini rivojlantirish, keyinchalik ularni amalga oshirish bilan birga keladi. Shu sababli, ushbu jarayonga ta’sir qiluvchi motivlar ham moddiy, ham ma’naviy bo’lishi lozim. Inson kapitalini rivojlantirishning asosiy motivlari quyidagilardan iborat deb hisoblaymiz: fiziologik motivlar, xavfsizlik motivlari, ijtimoiy motivlar, hurmat motivlari va o’z-o’zini hurmat qilish motivlari.

Xulosa va takliflar

Inson kapitalini rivojlantirish sohasidagi dolzarb muammolarni hal qilish uchun yuqori raqamli malakaga ega kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish talab qilinadi, bunda quyidagilarga alohida e’tibor qaratish talab qilinadi:

Turli xil ta’lim texnologiyalari, o’qitish formatlari va texnik yangiliklarni birlashtirish va kunduzgi ta’limning an’anaviy modellarini mobil texnologiyalar, kengaytirilgan reallik vositalari va boshqa raqamli ta’lim vositalari bilan muvozanatlash orqali yagona raqamli ta’lim tizimini shakllantirish.

Ma’lumotlarni yaxshiroq tahlil qilish va prognozlash, sun’iy intellektdan foydalangan holda ilg’or ta’lim mahsulotlarini ishlab chiqish va ishga tushirish, turli bo’limlarning raqamli transformasiyasini tushunish va ularning o’zaro ta’sirini ta’minlash uchun prognozlash vositalarini takomillashtirish orqali raqamli ta’lim sifatini oshirish.

Raqamli iqtisodiyotda inson kapitalini boshqarishning taklif etilayotgan uslubiy tamoyillari korxonalarining inson kapitalini boshqarishning nazariy va uslubiy asoslarini rivojlantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Muminov N. The role of intellectual potential in the innovative development of the national economy: theoretical and historical approach // German International Journal of Modern Science №19, 2021. VOL. 2. ISSN (Print) 2701-8369. ISSN (Online) 2701-8377. DOI: 10.24412/2701-8369-2021-19-2-27-29

2. Hidayat M., Latief F. The influence of developing human capital management toward company performance (The evidence from developer companies in south Sulawesi Indonesia) // SEIKO: Journal of Management & Business. – 2018. – T. 2. – №. 1. – C. 11-30.

3. Mamuli C. L. Human capital development and higher education // European Business & Management. – 2020. – T. 6. – №. 4. – C. 61-66.

4. Kucharčíková A., Tokarčíková E., Blašková M. Human capital management–aspect of the human capital efficiency in university education // Procedia-social and behavioral sciences. – 2015. – T. 177. – C. 48-60..

5. Амиркулов Ш. О. Инсон капитали: шаклланиши ва ривожланиши // Инновацион технологиялар . 2020. №2 (38). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/inson-kapitali-shakllanishi-va-rivozhlanishi> (дата обращения: 11.03.2024).

6. Болтаев Бурхон Садинович Инсон капиталининг ривожланиш хусусиятлари ва омиллари // Экономика и финансы (Узбекистан). 2022. №2 (150). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/inson-kapitalining-rivozhlanish-hususiyatlari-va-omillari>

7. Г.П.Эркаева “Инсон капиталини ривожлантиришнинг хорижий тажрибалари” 2023 у. <https://conference.tsue.uz/index.php/article/article/download/321/30>

8. Muallif tomonidan ma’lumotlar asosida qayta tuzildi

9. Орипова З.Д. Хитойда инсон капиталига инвестицияларни йўналтириш // Замонавий таълим / Современное образование 2014, №6,3-8 б.

10. Илкка Тайпале Финляндиянинг 100 та ижтимоий инновацияси./ Финляндия қандай қилиб Финляндия бўлди: сиёсий, ижтимоий ва маиший инновациялар. – Т.: “Sharq”, 2019. – 336 бет.

11. The output of educational institutions and the impact of learning. <https://www.oecd-ilibrary.org/>

12. Эркаева, Г. П., & Рузикулов, С. З. (2022). Инсон капиталини шаклланиши, ривожланиш даражалари ва инсон капиталини инвестициялаш. 24, 225-229.

13. Тагаев, Б. (2023). Корхона инсон капиталини рақамли ривожлантиришни бошқаришнинг стратегик модели. Iqtisodiy Taraqqiyot Va Tahlil, 1(2), 284–293. Retrieved from <https://eitt.uz/index.php/eitt/article/view/75>

14. Mincer, J. The Production of Human Capital and The Lifccycle of Earnings: Variations on a Theme. — Working Paper of the NBER, No 4838 (Aug. 1994).

15. Бэккер Г.С., Человеческий капитал (главы из книги) // США: экономика, политика, идеология., 1993. №11.109-119. №12. С. 86-104.

16. Inson kapitali iqtisodiyoti. G.Q.Abduraxmanova, S.A.Bozorova. – O’quv qo’llanma Т.:—Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi||, 2022. - 173 bet.

17. Mehnat iqtisodiyoti: Nazariya va amaliyot / Darslik. Kalandar Abdurahmonov. Т.: O ‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti davlat korxonasi, Т.: 2019.-544 b.

Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali



+998 71 239 28 13

Tashkent, Uzbekistan

ilmiymaktab@gmail.com

www.laboreconomics.uz